

CHINGIZ AYTMATOV IJODINI INTERAKTIV METODLAR ASOSIDA O'RGANISH

Tursunova Shaxzoda Toir qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
+998993722382

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18441712>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada 9-sinf adabiyot darslarida Qirg'iziston xalq yozuvchisi Chingiz Aytmatov ijodini o'rganish va o'rgatish borasida metodik tavsiyalar beriladi. O'quvchilarda vatanga muhabbat va sadoqat, millatlararo hamdo'stlik g'oyalari adibning asarlari timsolida shakllantiriladi. Shuningdek, qardosh xalqlarning adabiyotini o'rganish jarayonida „Muammoli vaziyat“, „Omadli raqam“, „Davom ettir“, „Qiziqarli savol-javob“ metodlaridan foydalangan holda olingan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish borasida fikr yuritiladi.


Kalit so'zlar: millatlararo hamdo'stlik, vatanga muhabbat, sadoqat, qissa, roman, adabiy asar janri, metod, malaka

Bugungi rivojlanib borayotgan zamonda ta'lim jarayonini innovatsion uslubda tashkil qilish davrning eng asosiy talablaridan biri bo'lib qolmoqda. Tabiiyki, bu jarayon o'qituvchidan sohadagi bilimlar bilan birga ularni amaliyotda qo'llay bilish qobiliyatini talab qiladi. Olingan bilimlarni amaliyotda ko'rsatib beruvchi omil sifatida turli xil metodlarni ko'rishimiz mumkin. Ana shunday metodlarning eng samaralilari integrativ metodlar ekanligi bir necha marta amaliyotda o'z isbotini topib kelmoqda. Sababi ushbu jarayonda nafaqat o'quvchidan balki o'qituvchidan ham faollik talab qilinib, dars „o'qituvchi- o'quvchining jonli muloqoti“ shaklida olib boriladi. Eng muhimi, integrativ metodlar o'sib kelayotgan yosh avlodga sohadagi yangi bilimlarni berish bilan birga ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirib, tanqidiy, tahliliy va qiyosiy fikrlash imkoniyatlarining oshishiga yordam beradi. Jarayonning qay tarzda amalga oshishi va o'quvchilar to'g'ri yo'nalish ola olishlari, metodlarning ta'sir ko'lamiga esa o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, 9-sinf adabiyot darsligida Chingiz aytmatovning „Asrga tatigulik kun“ romani berilgan. Mavzuni o'rgatish jarayonida yosh nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda turli xil qiziqarli o'yinlardan foydalanish tavsiya qilinadi. Sababi bu uslub o'quvchilarning diqqatini qaratish va ularda fanga nisbatan qiziqishning oshishiga yordam beradi. Chingiz Aytmatov asarlaridagi turli xil muammoli masalalar, holatlar, qarama-qarshiliklar esa mavzuning o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun samarali metodlardan foydalanishni talab qiladi.

Chingiz Aytmatov asarlaridagi obrazlar oddiy kishilar bo'lishiga qaramay ular timsolida butun boshli jamiyatning haqiqiy a'zolari yoritib beriladi. Davriy muammolar va ijtimoiy masalalarga, inson shaxsiga e'tibor qaratib ularni o'quvchilarga tushunarli tilda bayon qilib bera olish bugungi kun o'qituvchisining eng katta vazifasidir. Ta'lim jarayonida „Muammoli vaziyat“, „Omadli raqam“, „Davom ettir“, „Qiziqarli savol-javob“ metodlaridan foydalanish ko'zlangan natijaga erishishga yordam beradi.

„Muammoli vaziyat“ metodi. Ushbu metod o'quvchilarni to'g'ri fikrlashga va adabiy matnlarni tahlil qila olishga o'rgatadi.



O’quvchilar topshiriqni quyidagicha bajarishlari mumkin:


1. Jahon adabiyotshunosligida keng e’tirof qilingan ushbu asar inson shaxsini tarixiy ildizlaridan, g’ururi, tili, qadrdonlari-yu qadriyatlaridan mahrum qilib qatldan ham ayanchliroq jazoga mahkum qilish ilinjidagi o’z manfaatlari yo’lida hech kimni ayamaydigan kishilardagi vahshiyona illatlar yoritib berilgan.

2. Edigey kishilar o’zligini unutayotgan bir zamonada, ota-bobolarining yodi bilan yashay olgan, ularning avlodi ekanligini, qadriyatlarini unutmagan haqiqiy qahramon, mushkul vaziyatda yordam qo’lini cho’zishdan qochmaydigan mard va ezgu kishilar timsoli.


3. Asarning bosh g’oyasi insonlarni, eng avvalo, ularning inson ekanliklarini va o’zlarining kimligini bildiruvchi, ko’rsatib turuvchi qarashlarini, qadriyatlarini, tarixini unutmazlikka da’vat qilishdir.

4. Romanni o’qish jarayonida ma’lumotli kishilardan bo’lsa ham insoniylik tushunchasini, kishilarning tuyg’ularini, xotirasini hurmat qilishni, ota-bobolar yodini unutgan haqiqiy manqurt sifatida Sobitjonni ko’rishimiz mumkin.

„Omadli raqam” metodi. Ushbu metodda raqamlarning orasiga adibning kasbi yoki asarlari yozilgan bo’ladi. Yanada qiziqarliroq o’tkazish maqsadida esa yozuv emas rasm ko’rinishida bo’lishi ham mumkin. O’quvchi esa birorta raqam tanlaydi va uning ortida yashiringan so’z nima haqida ekanligini topadi




Masalan: 7 raqami tanlandi. Raqam ortidan „Jamila” degan yozuv chiqadi. Bunda o’quvchidan talab qilinadigan narsa ziyraklik bilan ushbu so’zning nima haqida ekanligini anglab olishdir.



Bunda o’quvchi dars mavzusi hisoblangan adib Chingiz Aytmatovning asari nomini topish bilan birga uni boshqa asarlarga ham qiyoslab tahlil qiladi. Bu esa o’quvchida qiyosiy tahlil qilish qobiliyatini takomillashtirishga yordam beradi. Raqamlar orasidagi so’zlar rasmlarga yashiringan bo’lsa, javob quyidagicha tartibda bo’lishi mumkin:

Masalan 12-raqam tanlandi. Raqamning ortiga tuyalar rasmi tushirilgan bo’ladi:



O’quvchi zukkolik bilan „Asrga tatigulik kun” asarini yodga oladi va asarda keltirilgan Oqmoya, Qoranor Bo’ron kabi tuyalarni eslab, tuyalarning nomlarini egalari nomlari bilan bog’lab tahlil qiladi. Ular haqida aytilgan fikrlar va ta’riflarni xotirlaydi. Bu esa o’tilgan mavzuning o’quvchi yodida „ko’z xotirasi” vositasida yanada yaxshiroq saqlanib qolishiga yordam beradi.

Davom ettir” metodi. „Davom ettir” nomli inovatsion metod orqali o’qituvchi o’quvchilarni hushyorlikka chaqiradi. Sinf oralab yurib istalgan o’quvchiga yuzlanib unga qarata bir jumla aytadi. O’quvchi esa shunga aloqador boshqa bir so’z yoki so’zlar birikmasi aytadi. Boshqa bir o’quvchi esa undan oldin nechta so’z aytilgan bo’lsa, barchasini ketma-ketlikda sanab, oxirida o’zi ham yangi so’z qo’shib davom ettirib boraveradi. Masalan:

O’qituvchi Chingiz Aytmatovning bir romani nomini aytib: „Tog’lar qulaganda” desa,

1-o’quvchi: „Kassandra tamg’asi”, „Qiyomat”

3-o’quvchi: „Tog’lar qulaganda”, „Kassandra tamg’asi”, „Qiyomat”, „Asrga tatigulik kun”

4-o’quvchi esa asarlarning ketma-ketligini „Kassandra tamg’asi”, „Qiyomat”, „Asrga tatigulik kun”. Yuqorida sanab o’tilgan ushbu asarlar Chingiz Aytmatovning roman janridagi asarlaridir”,--- deydi.

Ushbu metodning afzalligi shundaki, u o'quvchilarda mavzuga oid tushunchalarni „eshitish xotirasi“ orqali yaxshi eslab qolish va uni nutqda bayon qilishni shakllantirishi bilan birga, ularda bir-birini tinglash, o'zgalarning fikrlariga hurmat bilan qarash kabi xususiyatlarni ham takomillashishiga yordam beradi. Yana bir muhim tomoni, darsda o'zlashtirishi nisbatan sust bo'lgan o'quvchilar ajralib qolmaydi, barcha qatori ular ham faol ishtirok etishadi. Shu sababdan buni nafaqat Chingiz Aytmatovning, balki boshqa yozuvchining asarlariga nisbatan yoki shoirlarning she'rlarini yodlash jarayonida ham qo'llash mumkin. Bunda dars zerikarli emas, aksincha jonli va faol muloqot shaklida o'tadi.

„Qiziqarli savol-javob“metodi. Bunda o'quvchilarga tarqatma material yoki ekranda test shaklidagi savollar beriladi. Odatdagi testlardan farqli va qiziqarli jihati shundaki, ushbu usulda savollar alohida qatorda ketma-ket beriladi. O'quvchilar avvaliga qaysi savol qaysi variantlarga tegishli ekanligini topishi va so'ngra to'g'ri javobni aytishlari lozim bo'ladi. Bunda doimgiga nisbatan ko'roq sezgirlik va diqqatlilik talab qilinadi. Masalan:

Quyidagi tartibda avval javoblarni beramiz:

- A. Sobitjon.
- B. Chingiz Aytmatov.
- D. Qoranor.
- E. Edigey .

T\r	Savollar:	Javob	Ball
1	Oqmoya tuyaning naslidan	D	1
2	Qiziqqonroq bo'lgani uchun uni „Bo'ron“ deb atashadi	E	1
3	„O'ladigan odamning o'lgani yaxshi, ketadigan odamning ketgani yaxshi“,--- deydi	A	1
4	Bolaligida haydovchi bo'lishni orzu qilgan adib?	B	1

O'quvchi javoblar bilan tanishar ekan mantiqan fikrlaydi va qaysi javob qaysi savolga mos, to'g'ri kelishini aniqlaydi. Jarayonni yanada qiziqarliroq tashkil etish maqsadida o'qituvchi tomonidan har bir to'g'ri javobga guruhlar kesimida ball beriladi. Dars so'nggida natijalar hisoblanganda eng ko'p to'g'ri javob bergan guruh g'olib guruh deb topiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan har 4 usuldan foydalangan holda darsni qiziqarli va samarali tashkil qilish mumkin. Bu jarayonni qay tartibda amalga oshirish esa har bir o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Adabiyot 9-sinf uchun darslik (2019) Toshkent.
2. Tursunova,Sh.(2022) Alfons Dodening „So'nggi saboq“ hikoyasida ilgari surilgan g'oya va qarashlar. Science and innovation.
3. Tursunova,Sh.(2022).Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasida davr muammolari.Science and innovation.
4. Tursunova,Sh.(2022).Muhammad Yusuf ijodida xalqona obrazlar tasnifi.Toshkent.
5. Tursunova,Sh.(2023).Ona tili darslarida integrativ yondashuvning ahamiyati. Samarqand.
6. Uz.m.wikipedia.org sayti